

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ON THE ISSUES OF STUDYING UZBEK INTERNET DISCOURSE****Khurmatillo Ismoilov***PhD in Philology, docent**Doctoral Candidate at Andijan State University**named after Zahiriddin Muhammad Babur**Andijan, Uzbekistann***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** internet discourse, written conversational speech, syntax of internet discourse, traditional spoken language, traditional written language, addresser and addressee, speech processing, asynchronous communication, syntactic features, grammatical inconsistencies, dialectism, jargon, barbarism, vulgarism, verbal and paralinguistic insults.

**Received:** 21.09.25**Accepted:** 22.09.25**Published:** 23.09.25

**Abstract:** This article discusses the evolution of Uzbek internet discourse and the emergence of new terms at the intersection of spoken and written language in connection with this development. In particular, the study critically examines the diverse ways in which terms such as "internet discourse," "written conversational speech," and "syntax of internet discourse" are used in existing research. The focus is placed on the need to stabilize these concepts as concrete terms within the field of linguistics.

**O‘ZBEK INTERNET DISKURSINI TADQIQ ETISH MASALALARIGA DOIR****Xurmatillo Ismoilov***filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti doktoranti**Andijon, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

**Kalit soʻzlar:** internet diskursi, yozma soʻzlashuv nutqi, internet diskursi sintaksisi, anʼanaviy ogʻzaki nutq, anʼanaviy yozma nutq, adresant va adresat, nutqiy hazm, asinxron muloqot, sintaktik xususiyatlar, grammatik nomuvofiqliklar, dialektizm, jargon, varvarizm, vulgarizm, verbal va paralingvistik haqoratlar.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oʻzbek internet diskursining takomili hamda unga bogʻliq holda ogʻzaki va yozma nutqning chorrahasida yangi atamalarining yuzaga kelgani haqida soʻz yuritiladi. Xususan, "internet diskursi", "yozma soʻzlashuv nutqi" hamda "internet diskursi sintaksisi" kabi atamalarining mavjud tadqiqotlardagi turfa xil shakllarda qoʻllanilishi tanqidiy koʻrib chiqilib, ularni til ilmida konkret termin sifatida barqarorlashtirish masalasiga eʼtibor qaratiladi.

## К ВОПРОСАМ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ИНТЕРНЕТ-ДИСКУРСА

**Хурматилло Исмоилов***кандидат филологических наук (PhD), доцент**докторант Андижанского государственного университета**имени Захириддина Мухаммада Бобура**Андижан, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** интернет-дискурс, письменная разговорная речь, синтаксис интернет-дискурса, традиционная устная речь, традиционная письменная речь, адресант и адресат, речевая переработка, асинхронная коммуникация, синтаксические особенности, грамматические несоответствия, диалектизм, жаргон, варваризм, вульгаризм, вербальные и паралингвистические формы оскорблений.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эволюция узбекского интернет-дискурса, а также возникновение новых терминов на стыке устной и письменной речи в связи с этим процессом. В частности, подвергается критическому анализу употребление таких терминов, как «интернет-дискурс», «письменная разговорная речь» и «синтаксис интернет-дискурса» в существующих исследованиях. Особое внимание уделяется вопросу стабилизации данных понятий в качестве конкретных терминов в языкознании.

Ayni vaqtda butun dunyo “o‘rgimchak to‘riaro” muloqot ko‘rinishlari avj oldi. Mazkur holat barcha soha vakillari qatori tilshunos olimlarni ham harakatga keltirib, til tadqiqining turli aspektlarida izlanishlar olib borishga, internet diskursini atroflicha o‘rganishga undamoqda. Bundan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, avvalo, insonlararo munosabatning barqaror ijobiy ko‘rinishda bo‘lishiga erishish istagining amaliy ifodasidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero inson manfaati – oliy qadriyatdir.

Internetda o‘zbek segmenti tilining mavjudligi va o‘ziga xos jihatlarini turli aspektlarda o‘rganish masalasi bugungi kunda tilshunoslik tadqiqotlarining asosiy e‘tibor berilayotgan jabhalaridandir. Sababi qisqa davr ichida internet eng ulkan axborot manbai hamda butun insoniyat faoliyat yuritayotgan axborot almashish vositasiga aylanib ulgurdi. Uning samaradorligi, uzoq va yaqin masofalardagi foydalanuvchilar o‘rtasidagi aloqaning mavjudligi qulay muloqot vositasi sifatida barchani o‘ziga birdek jalb qilib qo‘ydi. [8] Internet diskursi – “kommunikatsion inqilob” (M.Maklyuxan XX asr, 60-yillar) [11] sifatida yuzaga chiqdiki, qisqa muddatlarda “internet paydo bo‘lgunga qadar mavjud bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida jamlagan tilning yangi faoliyat doirasi”ga aylandi. [9]

Internet diskursining takomili unga bog‘liq holda og‘zaki va yozma nutqning chorrahasida yangi atamalarining yuzaga chiqishiga omil bo‘ldi. Xususan, “internet diskursi”, “yozma so‘zlashuv nutqi” hamda “internet diskursi sintaksisi” shular jumlasidan. Mazkur atamalar mavjud tadqiqotlarda turfa xil shakllarda ifodalanmoqdaki, ularni til ilmida konkret termin sifatida barqarorlashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega.

Internet diskursi og‘zaki va yozma nutqqa nisbatan yangicha: yuzaga chiqish shart-sharoitlari, ifoda usullarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turar ekan, bu xususiyatlarni nomlovchi turli atamalar bilan yuritilishi tabiiy. Ayniqsa, til tadqiqida internet muloqoti atamalarini yaxlitlashtirish, bir xillashtirish va turg‘unlashtirish masalasi dolzarbdir. Shu nuqtayi nazardan quyida mazkur doiraning muhim atamalariga aylanib ulgurgan: 1) internet diskursi, 2) yozma so‘zlashuv nutqi hamda 3) internet diskursi sintaksisi masalalariga to‘xtalib o‘tish, mazkur tushunchalarni termin sifatida barqarorlashtirish zarurati masalalariga e‘tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz.

I. Internet diskursi. Ijtimoiy munosabatlar uchun eng muhim va birlamchi sanalgan muloqot masalasi internet vositasining ham mavjud bo‘lishida asosiy omildir. Shu ma’noda internet orqali muloqot qilishni izohlashning ham muayyan atama bilan yuritilishiga ehtiyoj mavjud va bu turli nomlanishlar yuzaga keltiradigan farqliliklarning bartaraf etilishiga zamin yaratadi. Bugungi tilga doir izlanishlarda internet orqali muloqot qilish “internet diskursi”, “internet muloqoti”, “virtual muloqot”, “elektron diskurs”, “elektron muloqot” kabi atamalar bilan yuritilmoqda. O.K.Melnikovaning haqli ta’kidicha, ushbu masalada tilshunoslar orasida yakdillikka erishilmagan. “Shuning uchun atama kompyuter diskursi, virtual diskurs, tarmoqli diskurs, elektron diskurs, onlayn diskurs, elektron muloqot kabi turli variantlarda qo‘llanilmoqda”.[5]

O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham ayni masalada turfa xil qo‘llanishlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, D.Rustamov “Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik omillari hamda zamonaviy konsepsiyalari”ga bag‘ishlangan dissertatsiyasida “internet muloqoti diskursi an’anaviy muloqot turlarini zamonaviy ilmiy-texnik tamoyillar va imkoniyatlar asosida rivojlantirgani hamda inson omili va jamiyat taraqqiyoti uchun sezilarli ta’sirga ega bo‘lgan yetakchi fenomenga aylanib ulgurganini e’tirof etgani holda tadqiqotida “internet muloqoti” “internet muloqoti diskursi” atamalarini qo‘llaydi. [8] M.Madaminova bu borada “internet diskursi” atamasidan foydalanish maqbul ekanini ta’kidlab, uning zamidida internet tushunchasi atamasining boshqa versiyalarida keltirilgan barcha ma’no ottenkalari mavjudligini aytsa-da, izlanishlarida internet diskursi tili, virtual muloqot, internet muloqoti, elektron muloqot, internet tarmog‘idagi muloqot, tarmoqli muloqot atamalarini aralash holda qo‘llaydi. [9] B.Isroilova esa virtual muloqot tahlili asosida ijtimoiy omillarning tilga ta’siri masalalariga bag‘ishlangan falsafa doktori dissertatsiyasida “ijtimoiy tarmoq muloqoti”, “virtual muloqot” atamalaridan keng foydalanadi. [10]

Bizningcha, esa internet diskursi atamasi eng maqbul tanlov bo‘lib, jahon tilshunosligida e’tirof etilayotgan va o‘zbek til ilmidagi diskursiv faoliyat va uning nutqiy voqelanishida lisoniy va pragmatik omillarga doir mazmunni to‘la qamrab oladi. Demak, internet

orqali muloqot qilishni izohlashning eng maqbul shakli sifatida internet diskursi atamasini termin sifatida barqarorlashtirish maqsadga muvofiq.

II. Yozma soʻzlashuv nutqi. Bugunga qadar (internet diskursi yuzaga kelgungacha) til ilmida nutqning ikki turi eʼtirof etib kelinadi: ogʻzaki hamda yozma nutq. Ayni vaqtga kelib esa nutqning uchinchi turi ham vujudga keldiki, u oʻz qamrovida ham ogʻzaki, ham yozma nutqqa xos xususiyatlarni baʼzan qorishiq, baʼzan esa u yoki bu nutq shakliga “yon bosgan” holda aks ettirmoqda. Ayni xususiyatlarni aks ettirgan holda ogʻzaki va yozma nutqaro oraliq muloqot turining yuzaga kelgani tadqiqotchilar tomonidan eʼtirof etilmoqda. [5,8,9,10] Taʼriflanayotgan oraliqdagi muloqot – yozma soʻzlashuv nutqini anglatadi. Taʼkidlash kerakki, oʻzbek tilshunosligida bajarilgan tadqiqotlarda ushbu nutq turi: “soʻzlashuv uslubining yozma shakli”, “yozma soʻzlashuv shakli”, “soʻzlashuv uslubining yozma varianti”, “soʻzlashuv matni”, “ogʻzaki-yozma internet diskursi”, “ogʻzaki-yozma soʻzlashuv jarayoni” kabi turli variantlarda qoʻllanib kelinmoqda. [9] Bizningcha, mazkur variantlarni bir umumiy nom bilan oʻzbek til ilmida yozma soʻzlashuv nutqi tarzida qoʻllash maqsadga muvofiq boʻlib, buning barobarida yuzaga chiqajak yangi tadqiqotlarda turfa xil ifodalash bartaraf etiladi va mazkur atama termin sifatida barqarorlashadi.

Tilshunoslar internet tarmogʻini nutq yaratish imkoniyatlarini kengaytirish va tilda yangiliklar yaratishning samarali asosi sifatida tan oladilar. [3] Shuni taʼkidlash kerakki, elektron muloqot sohasida texnik vosita orqali uzatiladigan matn koʻrinishida bu yozma nutq, lekin til qurilishi va muloqot uslubi nuqtai nazaridan ogʻzaki nutq sifatida tavsiflanadi.

Internet diskursida sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar vaqt oʻtishi bilan kundalik tilga kirib boradi va shu bilan til tizimiga, uning soʻz boyligiga taʼsir qiladi. Bugungi davr kishisida “yangi shiddatli virtual dunyo” [2,4] shakllanishi va rivojlanishini kuzatish imkoniyati bor. [4] T.Yu.Vinogradova internet muloqotining asosiy belgilari sifatida giperintertekstuallik va soʻzlashuv uslubining yozma shaklini koʻrsatadi va toʻgʻridan-toʻgʻri gapiriladigan ogʻzaki nutqning internetda muqarrar ravishda yozma (aniqrogʻi, bosma) shaklda uzatilishi, shu asosda bugungi kunda mohiyatan lingvistik oʻzaro munosabatlarning yangi shakli – yozma soʻzlashuv nutqi paydo boʻlganligini taʼkidlaydi. [1] Oʻzbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan izlanishlarda ham mazkur nutq koʻrinishining yuzaga kelishi va takomili borasida eʼtiborga molik qarashlar bayon etilmoqda. Xususan, D.Rustamov fan-texnika taraqqiyoti hamda xalqaro globallashuv jarayonining tezlashuvi negizida yozma soʻzlashuv nutqining paydo boʻlganligini sinergetik yondashuv asosida taʼriflaydi: “Yozma soʻzlashuv nutqining dastlabki koʻrinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali sms shaklida qoʻllangan boʻlsa, XXI asrga kelib internet kommunikatsiyasi paydo boʻlishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi. Sinergetika tili bilan aytganda, «bifurkatsiya» jarayoni yuz berdi. Ushbu metodologik

nazariyaga asoslanadigan bo'lsak, internet tizimi, bu - attraktor, ya'ni o'ziga tortuvchi, jalb qiluvchi hodisot bo'lib, uning ta'siridagi fluktuatsiyalar natijasida so'zlashuv nutqi bifurkatsiya nuqtasini bosib o'tdi va pirovardida yangi yo'nalish sifatida yozma so'zlashuv nutqi shakllandi". [8]

M.Madaminova ham o'z tadqiqotida fan-texnika taraqqiyotining misilsiz imkoniyatlari tufayli yozma so'zlashuv shakli paydo bo'lganligi, internet muloqoti esa ana shu yangi uslubiy shakl uchun o'ziga xos maydon vazifasini o'tay boshlaganini e'tirof etadi. Olima yozma so'zlashuv nutqining zamirida insonlar asinxron shaklda va masofadan turib bilvosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lganligiga urg'u beradi. Internet diskursi tilining sintaktik o'ziga xosligi borasidagi mulohazalarida esa og'zaki so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan fonetik, leksik, grammatik nomuvofiqliklar, ya'ni til me'yorlaridan chekinishlar internet diskursining yozma shaklida ham amal qila boshlagani, adabiy til me'yorlariga amal qilinmaslik, noadabiy qatlamga oid dialektizm, vulgarizm, varvarizm, nostandart qisqartmalar kabi lug'aviy birliklardan foydalanish xususiyatlari yozma so'zlashuv nutqiga ham «ko'chib o'tgani»ni alohida ta'kidlaydi. [9]

B.Isroilova izlanishlarida yozma so'zlashuv nutqining yuzaga chiqishini shaxsning individual xususiyatlari "mevasi" sifatida izohlab, bunga virtual muloqotdagi ifoda erkinligini sabab ekanligiga urg'u beradi. "Virtual muloqotdagi ifoda erkinligi individual yozma so'zlashuv nutqini shakllantirmoqda. Bugungi virtual muloqot maydonida so'zlashuv uslubining ham qaysidir ma'noda yozma shakli yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. Bu yozma so'zlashuv nutqi shakllanganligidan dalolat beradi. [10] Yaqin o'n besh yillikda o'zbek til ilmda «so'zlashuv nutqining yozma shakli yo'q va mana shu jihati bilan boshqa funksional uslublardan tubdan farqlanadi. So'zlashuv nutqi og'zaki shaklda yuzaga chiqadi» [7] kabi qat'iy qarashlar mavjud edi. Bugungi kunda esa ko'plab olimlar og'zaki nutqni butunlay so'zlashuv uslubiga xos deb bo'lmaydi yoki yozma nutqni so'zlashuv uslubiga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas deb hisoblaydilar. Bu juda o'rinli gipoteza, chunki bugungi muloqot imkoniyatlarining turli darajalarida "og'zaki-yozma" nutq shakllari bir-birini to'ldiradi. [9]

Internet diskursining favqulotda ommalashishi "yozma so'zlashuv nutqi"ning "urfga kirishiga" turtki bo'ldi. Mazkur qorishiq nutq shakliga bo'lgan ehtiyoj va talabning haddan ziyodligi, virtual muloqotchilarning ko'p sonli ekani uning tur sifatidagi barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Buning barobarida nutq turlari tavsifida mavjud og'zaki va yozma nutqqa nisbatan "an'anaviy" sifatlovchisini qo'llash ehtiyoji yuzaga keldi, ya'ni an'anaviy og'zaki nutq, an'anaviy yozma nutq kabi. Bunday nomlashning obyektiv sabablaridan biri nomlanishlararo yorqin farqqa erishishdir. Shu asosda nutqning uch turini farqlab ko'rsatishimiz mumkin: 1) an'anaviy og'zaki nutq; 2) an'anaviy yozma nutq; 3) yozma so'zlashuv nutqi. Mazkur turlarning mavjudligi ularga

xos konkret farqlovchi xususiyatlarning mavjud nazariy qarashlar bilan asoslanganligida ko‘rinadi.

Internet diskursining turli shakllari tarkibini tahlil qilish tilning og‘zaki va yozma muloqot uyg‘unligidagi funksional jihatlari, jumladan, sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish imkonini beradi. Yozma so‘zlashuv nutqining “qorishqlik” faktori eng muhim va hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi, ya’ni har ikkala: og‘zaki va yozma nutq ko‘rinishlariga xos xususiyatlar muloqot vaqtida qorishiq holda namoyon bo‘ladi. Yanada yorqinlik adresant va adresatlarning mazkur nutq shaklini yetkazish va qabul qilish jarayonida namoyon bo‘ladi, ya’ni adresantning nutqni yetkazishi audioyozuv-ovozli xabar orqali an’anaviy og‘zaki nutqqa xos ko‘rinishda bo‘lsa, shu vaqtning o‘zida dialogik nutqning davomi bosma matn shaklida – an’anaviy yozma nutqqa xos bo‘lishi mumkin. Adresatning “nutqiy hazmi” [6] esa eshitish orqali an’anaviy og‘zaki nutqqa xos ko‘rinishda hamda vizual (ko‘rish) orqali an’anaviy yozma nutqqa xos (bosma) matnni qabul qilishi bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda bu “qorishqlik” suhbatning avvalidan yakuniga qadar davom etishi mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida adresant va adresatda vaqtni tejash istagining birdek mavjudligini aytish mumkin. Shu bilan birga yozma nutqdan foydalanish ko‘nikmasining yetarlicha yoki aksincha bo‘lishi ham muloqotning hal qiluvchi shartlaridandir.

III. Internet diskursi sintaksisi. “Internet diskursi yangicha toifadagi alohida muloqot turi sifatida o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanish vositalari hamda internetning zamonaviy jamiyat hayotida yetakchi mavqega egaligi bilan tavsiflanadi”. Internet diskursining sintaktik tabiati agrammatizmga moyilligi bilan o‘ziga xos. Bugungi tadqiqotlarda “internet muloqoti sintaksisi”, internet diskursi sintaksisi” [9] tarzidagi qo‘llanishlar mavjudki, buni diskursning navqiron ko‘rinishi bo‘lgan ushbu nutqqa xos atamalarining endigina ilmiy iste’molga kiritilayotganligi bilan izohlash mumkin. Internet diskursi ijtimoiy munosabatlarning nisbatan yangi maydoni bo‘lsa-da, qisqa vaqt ichida butun insoniyatni qamrab oldi. Bunda tanish va notanish odamlar bilan hamkorlik, do‘stlik munosabatlari o‘rnatish va shu kabi maqsadlar yo‘lida turli-tuman illyustrativ vositalar, audiovizual, musiqa va boshqalar orqali axborot va fikr almashiladi. Ayni jihatlar internet diskursi tushunchasini yuzaga kelishi va mazkur masalaga alohida e’tibor qaratilishi uchun zamin hozirlagan bo‘lsa, uning sintaktik xususiyatlari: turli o‘ziga xos ifoda shakllari ilmiy jamoatchilikni favqulotda o‘ziga jalb etdi.

Internet diskursi sintaksisida nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlash maqsadida akronim, inversiya, parsellyatsiya va ellipsis usullari keng qo‘llanishdadir. Sintaktik me’yordan chekinishlar: agrammatizmga moyillik ham internet diskursida odatiy ko‘rinishga aylanib ulgurdi. “Internet tarmog‘idagi yozma nutqiy faoliyat muqarrar ravishda og‘zaki nutq bilan bog‘liq bo‘lib, fonetik, morfologik va sintaktik birliklarda adabiy til me’yorlaridan chekinish, qisqartmalar,

noadabiy qatlamga xos soʻz boyligi, shuningdek, tarmoqning maxsus grafik dizayni kabilar virtual muloqotning yangi yoʻnalishini aks ettiradi” [8]

Internet diskursi sintaksisining yana bir xususiyati anʼanaviy adabiy til meʼyorlaridan chetlashishdir. Bu hodisa agrammatizm deb ataladi. Sintaktik sathda agrammatizm ifoda elementlari va turli qismlar oʻrtasidagi sintaktik munosabatning buzilishi koʻrinishida namoyon boʻladi. Tinish belgilarining yetarli qoʻyilmasligi yoki notoʻgʻri qoʻllanishi, gap boʻlaklari orasidagi sintaktik munosabatning buzilishi, nomuvofiqlik (anakoluf) va nutqiy uzilish, tutilish kabi holatlar agrammatizm hisoblanadi. Shuningdek, oddiy soʻzlashuvdagi, sheʼriy nutqqa yoʻnaltirilmagan inversiya – gap boʻlaklari tartibining oʻzgarishi ham agrammatizmning koʻrinishidir. Kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, ayni vaqtda inversiya, ellipsis, anakoluf, abrivatura, akronim kabi til hodisalari internet diskursining muhim elementlari sifatida namoyon boʻlmoqda.

Qisqacha xulosa shuki, oʻzbek internet diskursini tadqiq etish masalasi bugunning kechiktirib boʻlmas vazifalaridandir. Chunki internet diskursi ijtimoiy munosabatlarning yangi maydoni sifatida qisqa davr ichida insoniyatning deyarli barcha vakillarini oʻziga “qaram qilib” ulgurdi. Bugun internet tarmogʻining oʻzbek segmenti foydalanuvchilari oʻrtasidagi muloqotlarda yuqorida sanab oʻtilgan til hodisalari asosida ijobiy va salbiy munosabatlarning aks ettirilishi masalasi dolzarbdir. Bu borada kreolitik matnlar va paralingvistik vositalarning qoʻllanilishi ham oʻziga xos ahamiyat kasb etib, murakkab pragmemalar xosil qilishi bilan jiddiy oʻrganilishga muhtoj. Ayniqsa, internet diskursida shaxsga nisbatan verbal va paralingvistik haqoratlarning ifodalanishi qaltis ilmiy muammo hisoblanib, oliy qadriyat hisoblangan shaxsning shaʼni va qadr-qimmatiga daxl qilishi jihatidan salbiy yuridik oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shunday ekan nutqiy etiketga zid boʻlgan haqoratli ifoda shakllarini ilmiy etiketga zid holda boʻlsa-da, til tadqiqotlarida jiddiy koʻrib chiqishga zarurat mavjud.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медiateкст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С. Цветова. СПб, 2012. – С. 68-71.
2. Crystal D. A brave new linguistic world. 125 Trinity: assessing the performance arts since 1877 (London: Trinity College), June 2002, – P. 18-19;
3. Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете / Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С.63-67.
4. Латипова А.Л. Лингвистическая специфика интернет-дискурса в разнотелных языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М.: Нальчик, 2020. – С. 3-4.

5. Мельникова О.К. К вопросу об определении термина Интернет-дискурс // Казанский вестник молодых ученых. Теоретические и практические вопросы современной лингвистики. 2018, том-2 – № 4. (7). – С. 30-33;
6. Ismoilov X.T. Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (jinoiat ishlari bo'yicha sud majlisi misolida): Filol.f.b.f.d-ri (PhD) diss. – Andijon.
7. Каримов С. Ўзбек тили функциоал сгилитикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б.130.
8. Rustamov D. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik omillari hamda zamonaviy konsepsiyalari: Filol.f.d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2021. – 245 b.
9. Madaminova M.S. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni: Filol.fan.b.f.d-ri (PhD) diss. – Andijon, 2020. – 140 b.
10. Isroilova B. Ijtimoiy omillarning tilga ta'siri (virtual muloqot tahlili asosida): Filol.f.b.f.d-ri (PhD) diss. – Andijon, 2024. – 151 b.
11. Соколов А.В. Общая теория социальной коммуникации: Учебное пособие. СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 2002. – 103-104.